


SO'X TUMANIDA 4 TA TUMANLAR TAJRIBASI ASOSIDA AMALGA OSHIRILADIGAN ISHLAR



So'x tumanida 4 ta tumanlar tajribasi asosida amalga oshiriladigan ishlar

Joriy yilning davomida tijorat banklari bilan birligida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- “Sayhunobod tajribasi” asosida tijorat banklari va hokim yordamchilari tomonidan mahallalarda amalga oshirilgan **1 080 ta mikroloyiylar** hisobiga **2 160 nafar** nafar aholining daromadli mehnat bilan bandligi ta'minlanadi;
- “Uchi tajribasi” asosida **tijorat banklari** tomonidan mijozlar bilan o'tkazilgan **72 ta uchrashuvda** tadbirkorlarning muammolarini hal etish va yangi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali **100 nafar** fuqarolar ishga joylashtiriladi;
- “Zarbdor tajribasi” asosida bo'yicha qiymati **230,3 milliard** so'mlik **5 ta** loyiylar ishga tushirilib **390 ta** ish o'rni yaratiladi;
- “G'ijduvon tajribasi” asosida mahallalarda **26 milliard** so'mlik **5 ta** loyiha amalga oshirilib **132 ta** ish o'rni tashkil etiladi.

Shuningdek mahalla fuqarolar yig'inlarga biriktirilgan tijorat banklari tomonidan joriy yilda dasturlar doirasida **36.3 milliard so'mlik** kreditlar ajratiladi,

Jumladan:

- **Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi** doirasida
8.6 milliard so'm;
- **"Kichik biznesni uzlusiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturi** doirasida **24.7 milliard so'm;**
- **"Biznesga birinchi qadam" dasturi** va boshqa dasturlar doirasida **2.0 milliard so'm** kreditlar ajratiladi.

Bundan tashqari joriy yilda **13 009 nafar** aholi doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlar bilan band qilinadi, hususan **investitsiya** loyihalari hisobiga **1 263 ta, xizmat ko'rsatishda 5 504 ta, qishloq xo'jaligida 6 679 ta, qurilishda 793 ta** ish o'rinnlari yaratilib, **2025 yil yakuni** bilan ishsizlik darajasi **5,7 foizga** tushiriladi.

Shu bilan birga hududlardan jami 3 329 **ta** oilalar kambag'allikdan chiqarilib, yil yakuni bilan kambag'allik darajasi **5,4 foizga** tushiriladi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2025-01-29 17:46:14